
KASBLAR FESTIVALI O'TKAZILDI

Bugun tumandagi 2-son kasb-hunar maktabida "Kasbim-kelajagim poydevori" shoiri ostida kasblar festivali va ochiq eshiklar kuni tadbiri bo'lib o'tdi.



Tadbirda tuman hokimligi vakillari, Farg'ona viloyati kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi boshlig'i T.Boymatov, boshqarma mas'ul xodimlari, tumandagi umumta'lim maktablarining rahbarlari, 1500 dan ziyod 9-sinf bitiruvchilari, shuningdek, ish beruvchi va hamkor tashkilotlar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida ishtirokchilar o'quvchilarni kasb-hunar o'rganishlari uchun yaratilgan sharoitlar, o'quvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlar, darsdan tashqari vaqtlarda shug'ullanayotgan qo'shimcha kasblari bilan yaqindan tanishdilar.

Kasb-hunar maktabida bo'lib o'tgan tadbir ishtirokchilarda katta taassurotlar qoldirdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-19 22:01:06